

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№11

2025
noyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 393 sahifa.
2025-yil, noyabr

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHONDA KREATIV IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHINING UMUMIY GLOBAL TENDENSIYALARI.....	12
Ismailov Azizbek Ruzimaxmatovich	
CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUV VA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA BOZOR INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY OMILLARI	22
Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich	
XORIJIY INVESTITSİYALAR VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR	30
Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR EKSPORTINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI	35
Sultonov Shodiyor Abduxalilovich, Karshiyeva Charos Mamasoliyevna	
QASHQADARYO VILOYATIDA OLIY TA'LIM VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI ASOSIDA YUQORI MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING HOZIRGI HOLATI.....	41
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich	
SOLIQ MA'MURCHILIGIDA XALQARO TAJRIBA ASOSIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH.....	48
Xodjimov Xamidullo Mamirjonovich	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELNI SAMARALI BOSHQARISH: MUAMMO VA TAKLIFLAR.....	53
Yusupov Shaxzod Maxmatmurodovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR VA IQTISODI SAMARADORLIGI TAHLILI.....	59
Axatova Shahnoza	
SANOATNING "DRAYVER" SOHALARINI RIVOJLANTIRISH	63
Mamurjonova Ruxshonabegim Farxodovna	
РОЛЬ КРЕАТИВНОЙ ИНДУСТРИИ В РЕГИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ КАРАКАЛПАКСТАНА.....	69
Хошимова Камилла Навфал қизи	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В ПОВЫШЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ОРГАНИЗАЦИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ	79
Тожиева Шахноза Бобомуратовна, Расулова Дилфуза Валиевна	
АНАЛИЗ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ.....	86
Файзиёв Умуркул Шухратович	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATIDA ISTEMOLCHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI	97
Jalilov Jamshid G'anjonovich	
СТАНДАРТЫ КАЧЕСТВА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ.....	103
Ўролова Севара Бехзод қизи	
BANKLARDA KAPITAL YETARLILIGI VA LIKVIDLIKNI AUDITORLIK BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	109
Narziyev Hayotjon Azamatovich	
NATIJAVIYLIKKA YO'NALTIRILGAN BudgetLASHTIRISH ORQALI FISKAL SAMARADORLIKNI OSHIRISH MASALALARI.....	115
Allakuliyev Akmal Baltayevich	
AUDITORLIK XULOSALARIDA AUDITORLARNING PROFESSIONAL MULOHAZALARNING ASOSLILIGINI ANIQLASH AHAMIYATI	120
Parpiyev Jaxongir Ilxomjonovich	
YASHIL IQTISODIYOTDA YASHIL MOLIYALASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIYOT UYG'UNLIGI.....	126
Xalikov S. X.	



TURISTIK KORXONALARDA BREND CAPITALINI BAHOLASH	131
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
AYOLLAR ISH BILAN BANDLIGINI OSHIRISHDA KASANACHILIKNING AHAMIYATI	141
Eshqobulova Charos O'roq qizi	
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	148
Алимова Дилафруз	
O'ZBEKISTON UZUMCHILIK KORXONALARINING EKSPORT MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA YASHIL INNOVATSIYALAR VA TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	153
Usmonova Diyora Mahmud qizi	
RAQAMLI MOLIYAVIY XIZMATLAR TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA SOLIQ BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI	161
Radjabov Umurzoq Ablakulovich	
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОГО СЕКТОРА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭНЕРГЕТИКИ	165
Аллаева Г.Ж.	
THE IMPORTANCE OF STRESS TESTING AND ITS IMPLEMENTATION IN COMMERCIAL BANKS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	169
Mamatova Sevara	
MINTAQADA SANOAT KORXONALARI SALOHİYATI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION KO'RSATKICHLARI	175
Nabiyev G'ulom Abdisalomovich	
IJTIMOİY SOHA INVESTISIYA LOYIHALARINI DAVLAT–XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA MOLIYALASHTIRISHDA RISKLARNI BOSHQARISHNING XORIY TAJRIBALARI	185
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
YASHIL BANK MAHSULOTLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ISTIQBOLLARI	189
Mahmudov Ulug'bek Davronovich	
KICHIK BIZNESDA XUSUSIY VA UMUMIY AXBOROT TIZIMLARI INTEGRATSIYASI	193
Navruz-zoda Layli Baxtiyorovna	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	197
Mamatkulova Nadira Maxkamovna	
JAHON AMALIYOTIDA TASHABBUSLI BUDJETLASHTIRISHNING KONSEPTUAL YO'NALISHLARI	203
Xamidov Xabibullo Xikmatulla o'g'li	
РАЗВИТИЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЁТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ МАЛОГО БИЗНЕСА КАК ФАКТОР ПЕРЕХОДА К “ЗЕЛЁНОЙ” ЭКОНОМИКЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	210
Бозорова Озода Рахимовна	
ТЕМИРБЕТОН КО'РРИКЛАРДАГИ BURDALANGIN BETONDAN OLINGAN CHAQIQ TOSHNI KOMPLEKS TADQIQOT QILISH	222
Salixanov Saidxon Salixanovich, Kenjayev Temurbek Olimjonovich	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKDA YASHIRIN IQTISODIYOTNI ANIQLASH USULLARI VA SOF FOYDA KO'RSATKICHIDA AKS ETISH YO'LLARI	226
Mavlyanov Muzaffar Yusupovich	
MAMLAKATIMIZ BANKLARIDA FOIZ RISKILARI MUAMMOLARI VA ILMIY-TAHLILI	230
Isakov.J.Ya	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI EKSPORTGA YO'NALTIRISHDA IQTISODIY BARQARORLIK TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI VA BAHOLASH MEZONLARI	238
Faxriddinov Bahriddin	



TO'QIMACHILIK SANOATIDA SUN'IY VA KIMYOVIY TOLALARNING IQTISODIY AFZALLIKLARI	243
Raximov Furqat Jalolovich	
BUXORO VILOYATIDA CHARM-POYABZAL TARMOG'I RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH STRATEGIYASI.....	249
Rahmonov Xurshid Xayriddinovich, Atoeva Mehriyo Ilhom qizi	
KORXONALARDA BUXGALTERIYA HISOBI VA UNI YURITISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	254
M.I.Murodova	
SOLIQ SIYOSATI ORQALI AHOLI DAROMADLARINI RAG'BATLANTIRISH MEXANIZMLARI.....	258
Uzoqov Suhrobjon Do'smat o'g'li	
INNOVATSION VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA LOGISTIK XIZMATLAR KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI TAHLILI.....	264
Xalimov Javlonbek Shaxriyovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ TIZIMIDA RAQAMLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SOLIQLARNI UNDIRISHNING METODOLOGIK MUAMMOLARI	271
Muxammadov Nodir Karimovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA EKSPORTBOP MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQARISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISH	277
Boymirzayev Zokirjon Mashrabboyevich	
IQTISODIYOT VA TA'LIM BOSHQARUVI: O'ZBEKISTONDA TA'LIM BRENDINGI UCHUN IQTISODIY JIHATLAR.....	282
Dilfuza Shokirova	
OLIY TA'LIM SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	291
Raximjonova Shohsanam Baxodirovna	
O'ZBEKISTON BANKLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI INSON KAPITALI RIVOJI BILAN UYG'UNLASHTIRISH: INSTITUTSIONAL YONDASHUV.....	295
Xushvaqto'v Nodirbek Nomoz o'g'li	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA MOLIVAVIY STRESS-TEST TIZIMINI YARATISH METODOLOGIYASI	299
Zaynutdinov Ismoil Samariddin o'g'li	
HOZIRGI SHAROITDA BANK FAOLIYATIDA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI	303
Malikova Dilrabo Muminovna, Shakarova Kumush Faxriddin qizi	
ENSURING SECURITY IN THE DIGITAL WORLD: HOW THE INSURANCE INDUSTRY CAN COUNTER CYBERATTACKS	308
D.D. Omonova	
JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZO BO'LISH JARAYONIDA BYUDJET-SOLIQ SIYOSATINI ISLOH QILISH MASALALARI	314
Hojiakbar Zaynabidinov	
SILINDRSIMON KAMERADA QATLAMLI CHIGITLAR AYLANMA HARAKATINING TAHLILI.....	319
No'monov Mirjalol Abdumalik o'g'li	
IPAKCHILIK KLASSTERLARI ASOSIDA TARMOQNI O'RTA MUDDATLI RIVOJLAN TIRISH STRATEGIYASI.....	325
Xudoykulov Mamarasul Radjabovich	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	332
Shermatov Sirojiddan Xaydarovich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM IQTISODIYOTINING RAQAMLI MARKETING ORQALI RIVOJLANISH YO'LLARI.....	335
Egamberdiyev Muzaffar	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ РЕШЕНИЙ В РЕАЛИЗАЦИИ ПРОЕКТА «БЕЗОПАСНЫЙ ГОРОД»	339
Иминов Акбаржон Одилжонович	



IQTISODIY TIZIM VA INSON QADRIYATI: KAPITALIZM VA GUMANIZM O'RTASIDA	345
Raxmatullayev Sarvar Nazar o'g'li, Abdukarimova Muborak Sharaf qizi, Madrakhimova R. G.	
O'ZBEKISTONDA QULAY INVESTITSIYA MUHITINI SHAKLLANTIRISH VA INVESTITSİYALAR JALB ETISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	350
Yusupov Muxiddin Soatovich	
KONSOLIDATSIYALASHGAN MOLİYAVIY HISOBOT MA'LUMOTLARINI TAHLIL QILISH MASALALARI	358
Avazov Ilhom Ravshanovich	
YANGI TUZILISHLI IKKI QATLAMLI TRIKOTAJ TO'QIMALARINI OLISH USULLARI	363
S. Saparova, M. Musaeva, M.Mirsadikov, M.Mukimov	
KVANT MUHITIDA AXBOROTNI HIMOYALASHGA XIZMAT QILUVCHI MULTIPLEKSER TUZILMASI	370
Safayev Nuriddin Najmiddin o'g'li	
ERKIN IQTISODIY HUDUDLAR: KO'P QATLAMLI IQTISODIY MEXANIZMLAR, INNOVATSION INFRATUZILMA VA INSTITUTSIONAL UYG'UNLIKNING KONSEPTUAL TAHLILI	377
Kuziev Ravshan Ramazonovich	
SANOAT HAMKORLIGINING ILG'OR TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA INTEGRATSIYA QILISH YO'LLARI	385
Boyturayev Olimjon Urayimovich	



SANOAT HAMKORLIGINING ILG'OR TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA INTEGRATSIYA QILISH YO'LLARI



Boyturayev Olimjon Urayimovich

Namangan davlat texnika universiteti

Iqtisodiyot kafedrası dotsenti, PhD

Email: olimjonboyturayev26091980@gmail.com

ORCID: 0009-0006-8510-9970

Annotatsiya. Ushbu maqola xalqaro sanoat hamkorligining ilg'or tajribalari va ularni O'zbekiston iqtisodiyotiga integratsiya qilish yo'llarini o'rganadi. Kichik va o'rta biznes klasterlari, innovatsion texnoparklar hamda davlat-xususiy sherikliklar raqobatbardoshlikni oshirish, texnologik yangiliklarni joriy etish va eksport hajmini kengaytirishda muhim omil ekanligi ta'kidlanadi. Tavsiyalar sifatida klasterlar rivojini qo'llab-quvvatlash, raqamli integratsiyani kuchaytirish va sanoat hamkorligini kengaytirish yo'nalishlari ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: kichik biznes, sanoat hamkorligi, klaster, innovatsiya, texnologiya transferi, eksport, davlat-xususiy sheriklik, raqamlashtirish, inkubator, ta'minot zanjiri, O'zbekiston, xalqaro integratsiya.

Abstract. This article examines global best practices in industrial cooperation and their applicability to Uzbekistan's economy. It highlights SME clusters, innovation parks, and public-private partnerships as key drivers of competitiveness, technological adoption, and export growth. Recommendations focus on cluster development, digital integration, cooperative supply chains, and international collaboration to enhance Uzbekistan's SME sector.

Keywords: SME, industrial cooperation, clusters, innovation, technology transfer, export, public-private partnership, digitalization, incubators, supply chains, Uzbekistan, international integration.

Аннотация. Статья исследует передовой мировой опыт промышленного сотрудничества и пути его интеграции в экономику Узбекистана. Подчеркивается роль кластеров МСП, инновационных технопарков и государственно-частных партнерств в повышении конкурентоспособности, внедрении технологий и экспорта. Рекомендации включают развитие кластеров, цифровую интеграцию и расширение сотрудничества.

Ключевые слова: МСП, промышленное сотрудничество, кластеры, инновации, передача технологий, экспорт, ГЧП, цифровизация, инкубатор, цепочки поставок, Узбекистан, международная интеграция.

KIRISH

Kichik va o'rta biznes (SME) sohasida hamkorlik bugungi global iqtisodiyotda o'sish va barqarorlikning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Kichik va o'rta korxonalar o'zaro kooperatsiya orqali raqobatbardoshlikni oshirib, yangi texnologiyalarni tezroq joriy etishga hamda ishlab chiqarish samaradorligini yuksaltirishga muvaffaq bo'lmoqda. Ishlab chiqarish klasterlari bir hududda joylashgan va o'zaro bog'langan kichik hamda o'rta korxonalar guruhini ifodalaydi. 2023-yil holatiga ko'ra, dunyo bo'yicha 2 000 dan ortiq sanoat klasterlari faoliyat yuritib, ular umumiy YIMning 25–30 % ini ta'minlamoqda.

Innovatsion hamkorlik tendensiyalari rivojlangan davlatlarda ayniqsa yaqqol namoyon bo'lib, startaplar va kichik firmalar universitetlar hamda yirik korxonalar bilan hamkorlikda innovatsion loyihalar yaratmoqda. Davlat va nodavlat tashkilotlar kichik biznesni qo'llab-quvvatlashda faol ishtirok etib, ular uchun turli grantlar,

subvensiyalar va axborot resurslarini taqdim etmoqda. Bozor tarmoqlari bo'yicha kooperatsiya kichik korxonalar uchun resurslarni birlashtirish va xarajatlarni qisqartirish imkoniyatini yaratmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sanoat hamkorligi zamonaviy iqtisodiy tizimlarda innovatsion rivojlanish, raqobatbardoshlik va ishlab chiqarish samaradorligini oshiruvchi asosiy mexanizmlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Michael E. Porterning sanoat klasterlari haqidagi tadqiqotlari milliy iqtisodiyotlarda hududiy va tarmoq integratsiyasining o'sish drayveri ekanini ko'rsatadi. Porterning ta'kidlashicha, klasterlar ichidagi korxonalar o'zaro texnologik, infratuzilmaviy va institutsional aloqalari orqali innovatsiya intensivligini sezilarli darajada kuchaytiradi. Shu bilan birga, Paul Krugman geografik kontsentratsiya va sanoat kooperatsiyasining samarasini tahlil qilib, ishlab chiqarish zanjirining bir hududda zichlashuvi transport xarajatlarini kamaytirishini hamda bilimlar diffuziyasini tezlashtirishini asoslab bergan.

OECD tadqiqotchilari, xususan Andrew Wyckoff va Dirk Pilat, global qiymat zanjirlarining kengayishi sanoat hamkorligini yangi bosqichga olib chiqqanini ta'kidlaydi. Ularning fikricha, iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi sanoat subyektlari o'rtasidagi axborot almashinuvi, qo'shma investitsiya loyihalari va texnologiya transferi samaradorligini oshirmoqda. Dani Rodrik esa sanoat rivojlanishida davlatning muvofiqashtirish roli muhimligini ko'rsatib, samarali industrial siyosat innovatsion klasterlarni shakllantirish va xususiy sektor bilan strategik hamkorlikni kuchaytirish orqali o'sish sur'atlarini tezlashtirishini ta'kidlaydi.

Yaponiya va Janubiy Koreya tajribasini o'rgangan Alice Amsden va Robert Wade sanoat hamkorligining muvaffaqiyati institutsional intizom, maqsadli texnologik siyosat hamda eksportga yo'naltirilgan kooperatsion tizimlar bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Xitoy sanoat parklarining rivojlanishini tahlil qilgan Justin Yifu Lin esa davlat-xususiy sheriklik, innovatsion texnoparklar va xorijiy investitsiyalar bilan integratsiyalashgan sanoat mintaqalarining ishlab chiqarish zanjirini chuqurlashtirishda asosiy omil bo'lganini ta'kidlaydi.

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar sanoat hamkorligi samaradorligi klasterlar o'rtasidagi kooperatsiya, texnologiya transferi, qo'shma innovatsion loyihalar, davlatning maqsadli iqtisodiy siyosati va global qiymat zanjirlari bilan integratsiya jarayonlariga bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Bu yondashuvlar iqtisodiyotning raqobatbardoshligini kuchaytirish, ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish va eksport salohiyatini oshirishda asosiy mezon sifatida qaraladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi kichik va o'rta biznes kooperatsiyasi bo'yicha xalqaro va mahalliy statistik ma'lumotlarni yig'ish, rasmiy hisobotlar hamda ilmiy manbalardan olingan ko'rsatkichlarni taqqoslashga tayanadi. Olingan ma'lumotlar dinamik qiyoslash, trend tahlili va mintaqalararo solishtirish usullari orqali qayta ishlanib, kooperatsiya samaradorligini aniqlashga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yevropa Ittifoqi mamlakatlari kichik biznes kooperatsiyasi bo'yicha eng ilg'or tajribaga ega. Germaniyada "Mittelstand" modeli kichik va o'rta korxonalarni birgalikda rivojlantirishga xizmat qilmoqda. "Mittelstand" korxonalari Germaniyaning umumiy eksportining 52 % ini ta'minlab, texnologik yangiliklarni joriy etishda yetakchi o'rin egallaydi. Klaster modeli ularning o'zaro bilim va resurs almashinuvini kuchaytirib, mahsulot sifati hamda innovatsion faolligini oshirmoqda.

Italiya sanoat distriktlari tajribasi ham kichik korxonalar uchun hududiy asosda ixtisoslashgan ishlab chiqarish tarmoqlarini shakllantirish imkonini bergan. Bugungi kunda Italiyada 200 dan ortiq sanoat distriktlari faoliyat yuritib, ular mamlakat sanoat mahsulotlari eksportining 40 % dan ortig'ini ta'minlamoqda.

Frantsiya va Niderlandiyada texnoparklar va inkubatorlar kichik korxonalar uchun zamonaviy innovatsion infratuzilmani yaratgan. 2023-yil holatiga ko'ra, faqat Niderlandiyaning o'zida 70 dan ortiq texnopark faoliyat ko'rsatib, ular kichik va innovatsion korxonalar sonining 20 % ga o'sishiga xizmat qilgan.

Yevropa Ittifoqi dasturlari orqali kichik biznes uchun maxsus moliyaviy yordam va trening dasturlari taqdim etilmoqda. Masalan, COSME dasturi orqali 2014–2024-yillar oralig'ida 2 milliarddan ortiq Yevropa kichik korxonasi moliyaviy va konsultatsion yordam olgan. Yevropa kooperativ assotsiatsiyalari kichik biznesni raqamli transformatsiya hamda xalqaro savdoda faol qo'llab-quvvatlamogda.

Kichik korxonalarning texnologik kooperatsiyasi Yaponiyada innovatsion rivojlanishning asosiy omillaridan biri bo'lib, innovatsion markazlar va texnoparklar kichik korxonalar uchun tajriba almashinuvi hamda texnologik rivojlanish platformalarini yaratgan. 2023-yil holatiga ko'ra, Yaponiyada 120 dan ortiq texnopark faoliyat yuritib, ular orqali kichik korxonalar innovatsion mahsulot ishlab chiqarishni 25 % ga oshirgan. Davlat tomonidan kichik biznesni rag'batlantirish uchun grantlar, soliq imtiyozlari va innovatsion faoliyatni subsidiyalash mexanizmlari



qo'llanilmoqda. Klaster yondashuvi natijasida, Yaponiya eksportining 45 % dan ortig'i kichik va o'rta korxonalarga to'g'ri kelmoqda.

AQShda kichik biznesning rivojlanishida sanoat parklari va innovatsion zonalar muhim o'rin tutadi. 2024-yil holatiga ko'ra, AQShda 400 dan ortiq sanoat parklari hamda 200 dan ortiq texnoparklar faoliyat yuritib, ular kichik korxonalarni texnik infratuzilma va moliyaviy resurslar bilan ta'minlashda asosiy baza sifatida xizmat qilmoqda. SBA (Small Business Administration) dasturlari orqali kichik biznesga kredit, grant va konsultatsion xizmatlar muntazam taqdim etilmoqda. 2023-yilda SBA orqali 68 milliard dollar miqdorida kichik biznes kreditlari berilgan. Shuningdek, SBA kichik biznesni eksport faoliyatiga tayyorlash va xalqaro bozorga chiqish maqsadida ko'plab trening dasturlarini amalga oshirgan.

Texnologik rivojlanish va kichik biznes tarmoqlari o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud bo'lib, AQShda kichik texnologik kompaniyalar mamlakat umumiy innovatsiyalarining 30 % ini ta'minlamoqda. Ta'minot zanjiri hamkorligida kichik korxonalar yirik kompaniyalar uchun strategik yetkazib beruvchi sifatida faoliyat yuritmoqda. Masalan, Boeing va General Motors kompaniyalari o'z ta'minot zanjirlarining 40 % ini kichik va o'rta biznes subyektlari orqali shakllantirgan.

Kichik biznesga moliyaviy va ma'lumot yordami doirasida har yili 200 000 dan ortiq kichik biznes subyektlari SBA va boshqa dasturlar orqali grant, imtiyozli kredit hamda maslahat xizmatlarini olmoqda (1-jadval).

1-jadval. 2020–2024-yillarda xalqaro miqyosda kichik sanoat korxonalari kooperatsiyasi va innovatsion infratuzilma rivojlanish ko'rsatkichlari¹

Yil	Dunyo bo'yicha faoliyat yuritayotgan sanoat klasterlari soni	Yevropada kichik korxonalar eksportdagi ulushi (%)	Yaponiyada kichik va o'rta biznes ulushi (%)	AQShda SBA orqali kichik biznes kreditlari (mlrd \$)	Dunyo bo'yicha texnoparklar soni
2020	1800	48 %	58 %	55	380
2021	1850	49 %	59 %	58	390
2022	1900	50 %	59 %	60	400
2023	1950	51 %	60 %	65	410
2024	2000	52 %	60 %	68	420

Ushbu jadval 2020–2024-yillar davomida dunyo bo'yicha kichik sanoat korxonalari kooperatsiyasi va innovatsion infratuzilmasining rivojlanish ko'rsatkichlarini aks ettiradi. Jadvalda sanoat klasterlari sonining o'sishi, Yevropadagi kichik korxonalarning eksportdagi ulushi, Yaponiyada kichik va o'rta biznesning umumiy iqtisodiyotdagi o'rni, AQShda SBA (Small Business Administration) orqali kichik biznes subyektlariga berilgan kreditlar hajmi hamda dunyo bo'yicha faoliyat yuritayotgan texnoparklar soni keltirilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, sanoat klasterlari soni 2020-yildagi 1 800 tadan 2024-yilda 2 000 taga oshgan, Yevropada kichik korxonalarning eksportdagi ulushi 48 % dan 52 % gacha o'sgan va SBA tomonidan kichik biznes uchun ajratilgan kredit hajmi 55 milliard dollardan 68 milliard dollargacha ko'paygan. Bu ko'rsatkichlar kichik korxonalar hamkorligi hamda innovatsion infratuzilmaning global miqyosda izchil rivojlanayotganini tasdiqlaydi.

Xitoy kichik va o'rta biznes kooperatsiyasi sohasida dunyodagi eng yirik va samarali tajribalardan biriga ega. Xalqaro sanoat parklarini rivojlantirish orqali Xitoy kichik korxonalarni global ishlab chiqarish zanjiriga faol jalb eta boshladi. 2024-yil holatiga ko'ra, Xitoyda 250 dan ortiq xalqaro sanoat parklari faoliyat yuritib, ular mamlakat umumiy eksport hajmining 30 % dan ortig'ini ta'minlamoqda. Kichik va o'rta korxonalar klasterlarini shakllantirish Xitoy iqtisodiy strategiyasining asosiy ustunlaridan biri bo'lib, Guangdong va Jiangsu provinsiyalarida joylashgan sanoat klasterlarida 100 mingdan ortiq kichik sanoat subyektlari faoliyat yuritadi. Bu klasterlar texnologik integratsiya, resurs almashinuvi va innovatsion loyihalar ishlab chiqish orqali kichik korxonalar raqobatbardoshligini 25 % ga oshirgan.

Davlat va biznes kooperatsiyasi ham izchil rivojlangan bo'lib, Xitoy hukumati kichik va o'rta korxonalarni moliyalashtirish uchun maxsus fondlar tashkil etgan. 2023-yil yakuniga kelib, ushbu fondlar hajmi 300 milliard yuandan (taxminan 42 milliard dollar) oshdi. Innovatsion tarmoqlarda, jumladan biotexnologiya, AI va yarimo'tkazgichlar sohasida kichik korxonalar va yirik korxonalar o'rtasida 1 200 dan ortiq qo'shma loyiha amalga oshirilgan. Eksportga yo'naltirilgan kichik sanoat tarmoqlari Xitoy iqtisodiyotida muhim o'rin tutadi. 2024-yil ma'lumotlariga ko'ra, Xitoy eksportining qariyb 35 % i kichik va o'rta korxonalar hissasiga to'g'ri kelib, bu ko'rsatkich 2020-yildagiga nisbatan 5 % ga oshgan.

¹ Manba: stat.uz ma'lumotlari asosida tuzilgan

ASEAN mintaqasidagi davlatlar — Singapur, Malayziya, Indoneziya va Vyetnam — kichik korxonalar o'rtasidagi kooperatsiyani rivojlantirishda sezilarli yutuqlarga erishgan. Regional kooperatsion dasturlar, jumladan ASEAN SME Plan of Action 2020–2025, kichik biznes uchun innovatsion infratuzilmani rivojlantirish va transchegaraviy hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan. Savdo va ishlab chiqarish aloqalari mustahkamlanib, kichik korxonalar uchun umumiy eksport tarmoqlari shakllantirilmoqda. 2023-yil ma'lumotlariga ko'ra, ASEAN mintaqasidagi kichik korxonalar umumiy eksportning 25 % ini ta'minlagan. Savdo aloqalarini soddalashtirish uchun "One Window" elektron platformalari joriy etilib, ular orqali kichik biznes subyektlari eksport va import jarayonlarini tezroq va arzonroq amalga oshirish imkoniga ega bo'lgan.


Kichik korxonalar uchun investitsiya fondlari ham izchil kengaymoqda. Masalan, Malayziyada Small and Medium Enterprise (SME) Bank tomonidan kichik biznes uchun 5 milliard ringgit (taxminan 1,2 milliard dollar) mablag' ajratilgan. ASEAN Investment Facilitation dasturi orqali esa 2020–2024-yillar oralig'ida 600 dan ortiq kichik biznes loyihalari moliyalashtirilgan. Innovatsiyalar va texnologiya almashinuvi ham faol rivojlanmoqda. ASEAN Technology Transfer Initiative doirasida kichik korxonalar universitetlar va yirik kompaniyalar bilan hamkorlikda 250 dan ortiq texnologik transfer loyihalarini amalga oshirgan bo'lib, ushbu loyihalar kichik biznesning innovatsion salohiyatini o'rtacha 20 % ga oshirgan.

ASEAN Business Incubators dasturi kichik korxonalarni startaplar va innovatsion loyihalar bo'yicha qo'llab-quvvatlamogda. 2023-yil holatiga ko'ra, ASEAN mintaqasida 300 dan ortiq inkubatorlar faoliyat yuritib, ular orqali 12 mingdan ortiq kichik va startap kompaniyalar muvaffaqiyatli rivojlanishga erishgan.

Skandinaviya mamlakatlari — Norvegiya va Shvetsiya — kichik korxonalar klasterlari hamda innovatsion hamkorlikni rivojlantirishda ilg'or tajribaga ega. Norvegiya va Shvetsiyada innovatsion klasterlar kichik va o'rta korxonalar uchun texnologik va ilmiy platformalarni yaratgan. 2024-yil ma'lumotlariga ko'ra, Norvegiyada 60 dan ortiq texnologik klasterlar mavjud bo'lib, ular kichik biznesning innovatsion faoliyatini 30 % ga oshirgan.

Barqaror ishlab chiqarish va ekologik biznes modeli Skandinaviya tajribasining o'ziga xos jihatini tashkil etadi. Masalan, Shvetsiyada 2023-yil holatiga ko'ra, kichik bizneslarning 45 % i ekologik sertifikatlarga ega bo'lib, "yashil" ishlab chiqarish amaliyotlarini qo'llagan. Texnologiya va xizmat kooperatsiyasi doirasida kichik korxonalar IT, raqamli xizmatlar, sun'iy intellekt va "aqlli shaharlar" loyihalarida faol ishtirok etmoqda. Shvetsiyada 2024-yilda kichik korxonalar ishtirokida amalga oshirilgan raqamli innovatsiya loyihalari soni 700 taga yetgan.

Raqamli iqtisodiyotdagi kichik biznes integratsiyasi ham muhim ahamiyatga ega. Norvegiyada 2023-yilda kichik bizneslarning 65 % i o'z faoliyatida raqamli platformalar va onlayn xizmatlardan foydalangan (1-rasm).



1-rasm. 2024-yilda xalqaro tajribada kichik sanoat korxonalari kooperatsiyasi va rivojlanish ulushlari²

Ushbu diagramma 2024-yil holatiga ko'ra dunyodagi yetakchi mintaqalarda kichik sanoat korxonalari o'rtasidagi kooperatsiya va rivojlanish faoliyati ulushlarini aks ettiradi. Diagrammada Xitoyda sanoat parklari va klasterlar rivojlanishining global kooperatsiyadagi ulushi 30 % ni tashkil etgani, ASEAN mintaqasidagi kichik korxonalar eksport salohiyatining 25 % ulush bilan ajralib turgani ko'rsatilgan. Skandinaviya mamlakatlarning innovatsion klasterlari 20 % ulushni egallab, ularning raqamli iqtisodiyotdagi kichik biznes integratsiyasi 25 % ni tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkichlar kichik korxonalarning global iqtisodiyotdagi rolini, shuningdek ularning innovatsiya va eksport sohalaridagi o'sishini aniq ifodalaydi.

Innovatsion texnoparklar kichik korxonalar uchun texnologik va ilmiy baza yaratmoqda. 2024-yilda Rossiyada 110 dan ortiq texnopark faoliyat yuritib, ularning yarmidan ko'pi kichik va o'rta korxonalarni qo'llab-

2 Manba: stat.uz ma'lumotlari asosida tuzilgan



quvvatlashga yo'naltirilgan. Sharqiy Yevropa mamlakatlarida, xususan Polsha va Vengriyada ham texnoparklar tarmog'i kengayib, kichik biznesning innovatsion rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Davlat dasturlari ushbu jarayonlarning ajralmas qismi hisoblanadi. Rossiyada "Sanoat kooperatsiyasi va importni almashtirish" milliy loyihasi doirasida kichik korxonalarni qo'llab-quvvatlash uchun 2020–2024-yillarda 300 milliard rubl (taxminan 4 milliard dollar) ajratildi. Polshada esa Innovatsiyalar va raqamlashtirish agentligi tomonidan kichik korxonalar uchun grant va subsidiyalari hajmi 2024-yilda 1,5 milliard yevroga yetdi.

Mahalliy va xalqaro hamkorlik shakllari izchil rivojlanmoqda. Masalan, Rossiyada Germaniya va Xitoy kompaniyalari bilan sanoat kooperatsiyasi doirasida 500 dan ortiq qo'shma loyiha amalga oshirilgan. Sharqiy Yevropa mamlakatlari Yevropa Ittifoqi dasturlari orqali kichik korxonalar o'rtasida transchegaraviy hamkorlikni kengaytirmoqda.

Yirik korxonalar va kichik ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi aloqalar strategik ahamiyatga ega. 2023-yil ma'lumotlariga ko'ra, Rossiyadagi yirik sanoat korxonalarining 45 % i o'z yetkazib beruvchilar tarmog'iga kichik va o'rta biznes subyektlarini jalb qilgan.

Xalqaro tajribada kichik korxonalar uchun davlat tomonidan ko'rsatiladigan qo'llab-quvvatlov tizimlari muhim o'rin tutadi. Soliq imtiyozlari va grantlar eng ko'p qo'llaniladigan yordam shakllaridan biri hisoblanadi. Masalan, Germaniyada kichik korxonalar uchun soliq stavkalarida 10–15 % chegirmalar mavjud bo'lib, 2023-yilda 200 mingdan ortiq kichik firma ushbu imtiyozlardan foydalangan.

Kredit va kafolat tizimlari kichik biznes uchun moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Fransiyada Bpifrance agentligi 2020–2024-yillar davomida kichik va o'rta biznes uchun 45 milliard yevro miqdorida imtiyozli kreditlar taqdim etdi. Yevropa Kichik Biznes Kafolat Fondi ham kichik korxonalarga umumiy 30 milliard yevroga yaqin moliyaviy kafolatlar bergan.

Kichik biznesga texnik va axborot yordami keng rivojlangan. AQShda SBA (Small Business Administration) orqali har yili 200 000 dan ortiq kichik biznes subyekti uchun texnik ko'mak va biznes-reja ishlab chiqish xizmatlari taqdim etiladi.


Davlat-xususiy sheriklik loyihalari kichik sanoat rivojlanishini qo'llab-quvvatlashning yangi mexanizmi sifatida keng qo'llanilmoqda. Yaponiyada "Public-Private Innovation Partnership" dasturi orqali 2024-yilga kelib 600 dan ortiq kichik biznes innovatsion loyihalari moliyalashtirilgan.

Tadbirkorlik inkubatorlari va akseleratorlar kichik biznes startaplarini rivojlantirish uchun samarali platforma bo'lib xizmat qilmoqda. 2023-yilda butun dunyoda 7 500 dan ortiq biznes inkubatorlari va akseleratorlar faoliyat yuritgan. Ularning yordami bilan 2020–2024-yillar oralig'ida 15 000 dan ortiq startap kompaniyalar muvaffaqiyatli rivojlanishga erishdi.

Xalqaro savdo va hamkorlik platformalari kichik korxonalar uchun yangi imkoniyatlarni ochmoqda. World Trade Organization (WTO) kichik biznesning global savdo tizimiga integratsiyasini qo'llab-quvvatlash uchun maxsus dasturlar ishlab chiqqan. 2023-yilda WTO tomonidan kichik va o'rta biznes uchun "Trade Facilitation Agreement" doirasida 100 dan ortiq davlatda soddalashtirilgan eksport-import protseduralari joriy etildi.

Tashqi iqtisodiy aloqalarni kuchaytirish mexanizmlari orqali kichik korxonalar o'z mahsulotlarini xalqaro bozorga olib chiqmoqda. Masalan, Germaniyada har yili o'tkaziladigan "Mittelstand Global Export Initiative" orqali 2024-yilda 3 000 dan ortiq kichik kompaniya xalqaro bozorga chiqqan.

Kichik korxonalar uchun xalqaro yarmarkalar va ko'rgazmalar ham muhim platforma hisoblanadi. 2023-yilda o'tkazilgan "Global SME Expo" ko'rgazmasida 120 mamlakatdan 5 000 dan ortiq kichik biznes vakillari ishtirok etib, yangi hamkorlik shartnomalariga imzo chekdi (2-rasm).



2-rasm. 2024-yilda xalqaro savdo va hamkorlik platformalarining faoliyatdagi ulushi³

Diagrammadan ko'rinib turibdiki, xalqaro savdoni tartibga solish va osonlashtirishda WTO dasturlari eng katta ulushga ega bo'lib, umumiy ko'rsatkichning 35 % ini tashkil etadi. UNIDO va SME Development dasturlari kichik biznesning global bozorlarga kirishini qo'llab-quvvatlashda 25 % ulushga ega. Regional va global savdo shartnomalari 20 % ulush bilan kichik biznes uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Tashqi iqtisodiy aloqalarni kuchaytirish mexanizmlari hamda xalqaro yarmarkalar va ko'rgazmalar har biri 10 % ulush bilan kichik biznesning eksport va hamkorlik salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda. Ushbu ma'lumotlar kichik biznes uchun xalqaro aloqalar va hamkorlik platformalarining dolzarbligini ko'rsatadi.

O'zbekistonda xalqaro tajribani kichik va o'rta korxonalar rivojlanishida qo'llash uchun qulay muhit shakllanmoqda. So'nggi yillarda mamlakatda kichik biznes va sanoat klasterlarini rivojlantirish borasida sezilarli qadamlar tashlandi. 2023-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekistonda kichik va o'rta korxonalar soni 500 mingdan oshib, ularning iqtisodiy o'sishdagi ulushi 56 % ni tashkil etdi.

Raqamli infratuzilmani kengaytirish xalqaro tajribani tatbiq etishda muhim omil hisoblanadi. 2024-yil holatiga ko'ra, O'zbekistonda internet qamrovi 93 % ga yetib, raqamli xizmatlar va onlayn platformalarni kichik biznes faoliyatiga keng joriy etish imkonini bermoqda. Elektron hujjat aylanishi tizimlarining kengayishi kichik biznes kooperatsiyasini tezlashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Yangi klasterlar va sanoat zonalarini rivojlantirish yo'nalishida ham aniq natijalarga erishilmoqda. 2024-yilga kelib mamlakatda 130 dan ortiq sanoat zonasi faoliyat yuritib, ularda minglab kichik va o'rta korxonalar faoliyat olib bermoqda. Xalqaro tajriba asosida ushbu zonalarda ixtisoslashuv va kooperatsiya imkoniyatlarini yanada kengaytirish mumkin.

Kooperativ ta'minot zanjirlarini yaratish kichik sanoat subyektlari uchun strategik ahamiyatga ega. 2023-yilda O'zbekistonda kichik bizneslar o'rtasida kooperativ ta'minot zanjirlarini rivojlantirish loyihalari soni 150 taga yetdi.

Eksport va import imkoniyatlaridan samarali foydalanish ham xalqaro tajribani tatbiq etishning muhim yo'nalishidir. 2024-yil yakuniga ko'ra, O'zbekistonda kichik biznes eksportining umumiy ulushi 18 % ga yetgan. Ushbu ko'rsatkichni xalqaro savdo platformalariga integratsiya orqali yana oshirish mumkin.

Resurslar va infratuzilma imkoniyatlaridan foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Viloyatlarda yo'l-transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirish orqali kichik biznes subyektlari uchun mahsulot yetkazib berish va eksport qilish imkoniyatlari 20 % ga yaxshilangan.

Kooperatsion loyihalar uchun moliyalashtirishni kuchaytirish zarur. Shu maqsadda kichik biznes uchun maxsus kredit liniyalari va grant dasturlarini yaratish rejalashtirilmoqda. Masalan, 2024-yilda O'zbekiston Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish jamg'armasi kichik biznes kooperatsiyasini qo'llab-quvvatlash uchun 50 million dollar ajratishni maqsad qilgan.

Mahalliy va xorijiy tajribalarni uyg'unlashtirish strategik ahamiyatga ega. Germaniya, Yaponiya va ASEAN mamlakatlarining sanoat kooperatsiyasi tajribasini O'zbekiston sharoitiga moslashtirish orqali kichik korxonalar salohiyatini oshirish mumkin.

Texnologik hamkorlik va innovatsion loyihalarni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Andijon viloyatida 2023–2024-yillarda innovatsion texnopark va biznes-inkubatorlar soni 3 baravarga oshirilgani kichik biznesning texnologik imkoniyatlarini kengaytirdi.

Hamkorlikni huquqiy tartibga solish mexanizmlarini kuchaytirish orqali kichik korxonalar o'rtasidagi ishonchni mustahkamlash va uzoq muddatli kooperatsion aloqalarni rivojlantirish mumkin. 2024-yilda O'zbekistonda kichik biznes kooperatsiyasi va klaster faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid yangi qonun loyihasi ishlab chiqilmoqda.

Mahalliy kichik sanoat subyektlari rivojlanishini ta'minlash uchun bir nechta muhim strategik tavsiyalar mavjud. Birinchi navbatda, ixtisoslashgan klasterlar yaratish zarur. 2024-yil holatiga ko'ra, O'zbekistonda 130 dan ortiq sanoat zonasi mavjud bo'lsa-da, ularning faqat 30 % i to'liq ixtisoslashgan klaster shaklida faoliyat yuritmoqda. Shu sababli har bir hududda mahsulot xususiyatlari va bozor talabiga asoslangan klasterlar tashkil etish kichik biznes rivojlanishiga kuchli turtki beradi.

Hududiy biznes inkubatorlarini rivojlantirish kichik korxonalar innovatsion imkoniyatlarini kengaytiradi. 2023-yil yakuniga ko'ra, O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan biznes-inkubatorlar soni 150 taga yetgan, biroq bu ko'rsatkichni 2025-yilgacha kamida 300 taga yetkazish rejalashtirilmoqda.

Mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish kichik biznes uchun xarajatlarni kamaytirish va mahsulot raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi. O'zbekiston qishloq xo'jaligi va konchilik resurslarini to'g'ri yo'naltirish orqali kichik sanoatni barqaror rivojlantirishga erishishi mumkin.

Marketing va eksport faoliyatini rivojlantirish kichik korxonalar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. 2024-yilda kichik biznes eksport ulushi 18 % ga yetgani ushbu yo'nalishdagi ijobiy tendensiyaning tasdiqlaydi.

Kichik sanoat subyektlari o'rtasida raqobat va hamkorlikni uyg'unlashtirish o'sishning muhim omilidir. Sog'lom raqobat va birgalikdagi rivojlanish strategiyasi kichik korxonalar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. 2023-yil yakuniga ko'ra, O'zbekistonda kichik korxonalar o'rtasida tuzilgan hamkorlik shartnomalari soni 15 % ga oshgan.



Brendlash va umumiy mahsulot nishonlari orqali kichik korxonalar o'z mahsulotlarini bir xil sifat standartlari asosida ishlab chiqarib, xalqaro bozorlarda o'z brendini mustahkamlashi mumkin. Masalan, "Made in Uzbekistan" brendi ostida eksport qilinayotgan mahsulotlar soni 2020-yildan 2024-yilgacha 35 % ga oshgan.

Resurslardan umumiy foydalanish — logistik markazlar, laboratoriyalar va marketing xizmatlarini birgalikda qo'llash — kichik korxonalar xarajatlarini 10–15 % ga kamaytirishga yordam beradi.

Yirik va kichik korxonalar o'rtasida muvozanatni ta'minlash orqali kichik biznes uchun yetkazib berish va xizmat ko'rsatish imkoniyatlari kengayadi. Hozirda O'zbekistonda yirik sanoat korxonalarining 42 % i kichik biznesni o'z yetkazib beruvchilari sifatida jalb qilgan. Xalqaro sertifikatlar va sifat standartlariga moslashish esa mahsulot sifati va raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. 2023-yilda O'zbekistonda kichik biznes subyektlari tomonidan olingan xalqaro sifat sertifikatlari soni 25 % ga oshgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mahalliy kichik sanoat subyektlarining rivojlanish jarayonida mavjud omillar ularning kelgusida yanada barqaror va innovatsion o'sishi uchun metodik yo'nalishlarni shakllantirish zarurligini ko'rsatadi. Valyuta kursi dinamikasi, inflyatsiya jarayonlari va xalqaro savdo sharoitlaridagi o'zgarishlar kichik biznesning moslashuvchanlik salohiyatini oshirish hamda risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha yangi yondashuvlarni joriy etishni talab qilmoqda. 2022–2023-yillar bo'yicha kuzatilgan o'zgarishlar kichik biznes subyektlari uchun iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash bo'yicha kompleks choralarni ishlab chiqish imkonini bermiqda.

Raqamli va texnologik modernizatsiya jarayoni kichik korxonalar oldida keng istiqbollar ochmoqda. 2024-yilda kichik korxonalarning 40 % tomonidan raqamli texnologiyalarni faol qo'llash boshlangani sohada transformatsiya jarayonlari jadallashayotganini, qolgan korxonalar uchun esa raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish bo'yicha tizimli o'quv va metodik dasturlarni joriy etish muhimligini ko'rsatmoqda. Moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish, kredit infratuzilmasini takomillashtirish va investitsiyalarni jalb qilishga qaratilgan mexanizmlar yangi texnologiyalarni joriy etish jarayonini yanada tezlashtirishi mumkin.

Kadrlar salohiyatini rivojlantirish kichik sanoatning barqaror o'sishida muhim omil bo'lib, 2023-yilda qayd etilgan ehtiyojlar texnik mutaxassislar tayyorlashni kuchaytirish va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish bo'yicha metodik yondashuvlarni shakllantirish zarurligini ko'rsatmoqda. Huquqiy va normativ baza bo'yicha so'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar kichik biznesni qo'llab-quvvatlashni kuchaytirayotgan bo'lsa-da, ularni amaliyotga tatbiq etish jarayonini yanada takomillashtirish orqali kichik sanoat subyektlarining zamonaviy iqtisodiyotga integratsiyalashish imkoniyatlari yanada kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining "2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–471-sonli qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-6333357>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 8-mayda "Davlat mulki obyektlarining hisobini yuritish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 273-sonli qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-4807558>
3. M.E. Porter. The Competitive Advantage of Nations. Monograph. – New York: Free Press, 1990. – 855 p.
4. P. Krugman. Geography and Trade. Monograph. – Cambridge: MIT Press, 1991. – 142 p.
5. A. Amsden. Asia's Next Giant: South Korea and Late Industrialization. Monograph. – New York: Oxford University Press, 1989. – 405 p.
6. R. Wade. Governing the Market: Economic Theory and the Role of Government in East Asian Industrialization. Monograph. – Princeton: Princeton University Press, 1990. – 438 p.
7. D. Rodrik. Industrial Policy for the Twenty-First Century. Working Paper. – Cambridge: Harvard University, 2004. – 58 p.
8. J.Y. Lin. New Structural Economics. Monograph. – Washington D.C.: World Bank Publications, 2010. – 384 p.
9. A. Wyckoff, D. Pilat. OECD Science, Technology and Industry Outlook. Report. – Paris: OECD Publishing, 2016. – 324 p.
10. K. Fujita, R. Hill. Asian Industrial Clusters, Global Competitiveness and New Policy Initiatives. Monograph. – Singapore: NUS Press, 2007. – 352 p.
11. C. Ketels. Cluster Initiatives for Competitiveness. Report. – Stockholm: Stockholm School of Economics, 2003. – 67 p.
12. S. Giovannetti, M. Sanfilippo. Do Industrial Clusters Promote Industrial Integration? Monograph. – London: Routledge, 2016. – 198 p.
13. Boyturaev O. U. "Kichik sanoat korxonalari o'rtasidagi ishlab chiqarish va kooperativ aloqalar holati" Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. Elektron nashr (2025-yil, noyabr. 11-son).

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100